

TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING INDIVIDUAL VA SINIF-DARS SHAKLLARINI KAMCHILIKLARI VA AFZALLIKLARINI HOZIRGI KUNDA ULARNI UYG'UNLASHTIRISH AFZALLIGI

A'zamov Adhamjon Axrorjon o'g'li

*Qo'qon davlat pedagogika institute tarix fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat
asoslari huquq ta'lim yo'nalishi 201- guruh talabasi*

Annotatsiya: *Hozirgi kunda ta'limning individual shakli uning afzalliklar va kamchiliklarni, sinf-dars tizimining kamchiliklari va afzalliklarini ko'rsatib berish va kamchiliklarni to'ldirish bo'yicha o'zgartirishlar kiritish*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, individual, individual shakl, ta'lim to'g'risidagi qonun, sinf, dars, sinf-dars tizimi.*

Kirish. Sifatli ta'lim hozirgi kunda dorzab mavzulardan biriga aylanmoqda. Ta'limni to'g'ri yoza qo'yilsa va ta'lim shu yo'nalish bo'yicha yaxshi ta'sir ko'rsatsagina yoshlarimiz bilimli bo'ladi. Ta'limning bu yo'llaridan biri bu individual ta'lim shaklidir. Keling avval individual so'ziga ta'rif beraylik. Individuallik (loticha "individuum" — "bo'linmas") — aniq narsa va hodisa, shaxs va jonzotning o'zigagina xos, betakror, xususiy belgilar. Belgi sifatlarining o'ziga xosligi bilan individuallik umumiylikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chunki umumiylik bu hamma uchun tegishli hisoblanadi individuallik bo'lsa faqatgina bitta shaxs yoki jonzotga tegishli hisoblanadi. Individual ta'lim Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. O'qitishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan xususan o'zimizda ham keng foylanilgan.

Sinf-dars tizimining ham o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olamiz. Dars deb aniq va muayyan maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchilar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan va o'tkaziladigan mashg'ulotdir. Sinf-yoshi va o'zlashtirishi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhiga aytiladi.

Asosiy qism. Ta'limni tashkil etish aniq muddatda va tartibda o'qituvchilar o'quvchilar bilan olib mashg'ulot turlarini tushunamiz. Endi Individual ta'limning afzalligi va kamchiliklariga to'xtalsak.

Individual ta'limning afzalligi

1. O'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi

Bu nima degani bunda biror masala chetda qolmaydi ya'ni o'qituvchining diqqati faqat bitta o'quvchida bo'la va u o'z navbatida belgilangan mavzuni yaxshi tushunadi va o'rganib oladi

2. Aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi

O'qituvchi o'quvchi yaxshi o'zlashtiryaptimi yoki unchalik tushunmayapti mi buni aniq bilib olishi mumkin

Individual ta'limning kamchiliklari

1. Vaqtning tejamli emasligi

O'qituvchi bunda juda ko'p vaqtini faqat bitta ta'lim oluvchiga bag'ishlaydi va vaqt ortiqcha sarflanishi ko'zda tutiladi

2. Boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi

Albatta raqobat sharoitida rivojlanish bo'ladi bu usulda esa raqobat deyarli yo'q chunki o'quvchi o'z tengdoshlari bilan raqobat qila olmaydi

3. Jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun atrofidagi odamlar bilan muloqotda bo'lishni va ular bilan birga faoliyat yuritishi zarur shunda shaxs ijtimoiylashadi va shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. Individual ta'lim tizimi ta'lim jarayonini tashkil etishning eng tarixiy qadimiy shakli hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, o'quvchi o'z uyida yoki o'qituvchini uyida topshiriqni yakka individual tarzda bajaradi.

XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi.

Endi sinf-dars tizimining kamchiliklari va afzalliklarini sanab o'tsam bu ham o'z navbatida o'zining ijobiy va salbiy jihatlarini o'zida jamlagan

Sinf-dars tizimining afzalliklari

1. Yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;

Bunda aniq vaqt belgilanadi va bu vaqt ichida hamma vazifalar bajariladi bunda reja asosida ish yuritiladi

2. Jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;

Asosan bunda guruhda ishlash qobiliyati shakllanadi

3. Ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi;

O'qituvchini qaysi o'quvchi qanday holatda ekanligini kuzatib boradi va nazorat qiladi

4. Bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Sinf dars tizimining bu afzalligida hech kim chetda qolmaydi ya'ni har bir o'quvchi o'tilgan mavzuni tushunish imkoniyatiga ega vaholanki agar o'zlashtirishi juda pas o'quvchi bo'lsa ham nisbatan yaxshi tushinib ola oladi

Sinf-dars tizimining kamchiliklari

1. Tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi;

Xohlaymizmi yo'qmi besh qo'l barobar emas chunki o'quvchilar ichi bilimni hammadan yaxshi olgan va ko'proq bilibga ega bo'lishi mumkin bo'lgan o'quvchilar ham tahsil oladi. Ularga bu tizim sal to'sqinlik qilishi mumkin chunki dars hammaga bir xilda o'qitiladi

2. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;

Bu 1-kamchilikda keltirilgan mulohazaga misol bo'la oladi.

3. O'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;

Bunda individual ishlash imkoniyati cheklanligi o'z navbatida qiyinchilik keltirib chiqaradi.

Sinf-dars tizimi nazariy jihatdan XVII asrda YA.A.Komenskiy tomonidan asoslangan. Ushbu tizim bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan boisada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qollanilib kelinmoqda

Xulosa. Yuqorida har ikkala shaklning afzalliklarini va kamchiliklari bilan tanishdik. Individual ta'limda vaqt cheklanganligi va raqobat yo'qligi uning rivojiga to'shqinlik qilgan. Balki biz uni ijobiy taraflarini o'zimizning sinf dars tizmiga qo'shsak qanday bo'ladi. Chunki individuallik yo'qligi sinf dars tizimining asosiy kamchiligi hisoblanadi. Masalan o'zlashtirishi nisbatan pastroq o'quvchi yoki o'quvchilar bilan individual shug'ullanib ularni o'tilgan mavzu bo'yicha keng qamrovli bilimga ega bo'lishiga hissa qo'shiladi. Yoki o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchi bilan alohida shug'ullanib uni fan olimpiada va boshqa musobaqalarda ishtirok etib yuqori natija erishishi imkoniyat yaratadi. O'z navbatida ta'lim-ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston respublikasining " Ta'lim to'g'risida"gi qonuni
<https://lex.uz/docs/-5013007>

2. " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" B.X.Xodjayev <<Sano-standart>>nashriyoti Toshkent - 2017

